

## NUROTA VOHASIDA GILAM TO'QISH VA KASHTACHILIKDA SAQLANIB QOLINGAN NOMODDIY URF-ODATLAR

*Tashmurodov Ravshan Suvanovich*

*I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi*

## НЕМАТЕРИАЛЬНЫЕ ОБЫЧАИ СОХРАНЯЮТСЯ В КОВРОТКАЧЕСТВЕ И ВЫШИВКЕ В ОАЗИСЕ НУРОТА

*Tashmurodov Ravshan Suvanovich*

*Tashkent State Technical University named after I. Karimov  
Senior teacher of the Department of History of Uzbekistan*

*Uzbekistan*

## INTANGIBLE CUSTOMS PRESERVED IN CARPET WEAVING AND EMBROIDERY IN NUROTA OASIS

*Tashmurodov Ravshan Suvanovich*

*Tashkent State Technical University named after I. Karimov*

*Senior teacher of the Department of History of Uzbekistan*



[ravshan71@gmail.com](mailto:ravshan71@gmail.com)  
ORCID 0009-0005-3120-828X

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliy san'atning gilamdo'zlik va kashtachlik turlarining mamalakatimizning Nurota vohasida chorvador aholisining azaliy hunarlaridan biri ekanligi ta'riflanadi. Shu bilan birga maqolada hozirgi kunlarimizda unutilib borayotgan urf-odat va an'analimizning nomoddiy turiga aylanib ulgiran ayrim jihatlarining qadim Nurota so'zanachyailigi va kashtachiligida xalqona ta'biri bo'yicha ilmiy munosabat bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Nurota, gilamchilik, kashtachilik, naqshlar, anor, bodom, qalampir, turunj, insonparvarlik, ruhiy oziqqa

**Аннотация:** В статье описано, что ковроткачество и вышивка относятся к числу древнейших ремесел скотоводов Нуратинского оазиса нашей страны. Также представлен научный взгляд на некоторые аспекты наших обычаев и традиций, которые в настоящее время утрачиваются и приобрели нематериальный характер, как, например, народные образы и сюжеты в вышивке сузани и кашта, созданных мастерами Нуратинского оазиса.

**Ключевые слова:** Нурота, ковроделие, вышивка, узоры, гранат, миндаль, перец, апельсин, гуманизм, духовная наслаждения.

**Abstract:** The article describes that carpet weaving and embroidery are among the most ancient crafts of the cattle breeders of the Nurata oasis of our country. It also presents a scientific view of some aspects of our customs and traditions that are currently being lost and have acquired an intangible character, such as folk images and plots in the embroidery of suzani and kashta, created by the masters of the Nurata oasis.

**Key words:** Nurota, carpet weaving, embroidery, patterns, pomegranate, almond, pepper, orange, humanism, spiritual pleasure.

O'zbek milliy xalq hunarmandchigi boy tarixga ega bo'lib, tabiat va jamiyat bilan uyg'un rivojlanishni o'zida mujassam etgan muhim manba

hisoblanadi. San'atshunos olim P.F.Priobrajenskiy ta'kidlab o'tganidek, "Asosiy vazifa tarixiy manbalar asosida yirik madaniy majmualarni qiyosiy

o'rganish, ularning o'zaro bog'liqlik jihatlarini aniqlashga qaratilishi kerak"[1]. Ana shunday kasb turlaridan biri to'quvchilik mashg'ulotining gilamdo'zlik va kashtachilik shaklidir. Umuman olganda gilamdo'zlik aholining azaldan turmush tarzida to'shama mahsulot turi sifatida dastlab, ibtidoiy jamoa davrida teri, hayvon junlari, o'simlik (qamish yoki buyra) shaklida insonlarning dam olishi, hordiq chiqarishi uchun mo'ljallangan buyum shaklida paydo bo'lgan. To'qimachilik buyumlari dastlab har bir natural xo'jalik ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan. Yanada to'g'riroq qilib aytganda, gilamdo'zlik tor xo'jalik doirasida chuqur ildiz otgan ilk hunarmandchilik shaklidir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVI-XVII asrlarga oid gilamlarda miniatyura sifatida amaldor shaxslar mavjudligini anglatuvchi belgilar aks ettirilganligini ko'rish mumkin. O'rta asrlarda, bayram yoki tantanalarda gilam amal, davlat, boyluk va kuch - qudrat ramzi sifatida ham qo'llanilgan. Uni faqat o'zlariga to'q boylar, amaldorlar va qirol oldi amaldorlari sotib olganlar xolos. Sababi gilamlar o'sha davrda juda qimmat va hammaga ham bo'lishi mumkin bo'lmagan atribut sanalgan.

Tarixi uzoq yillarga borib taqaladigan qadim va navqiron Nurota vohasida ham xalq hunarmandchiligida 30 dan ortiq turlari ya'ni gilamdo'zlik, so'zanachilik, kashtachilik, sangtaroshlik, kulolchilik kabi turli kasb hunarlar bilan shug'ullanib kelishadi. Nurota vohasi chorvador aholisi hayotida gilam to'qish an'analarning mavjudligini tasdiqlovchi manbalarda, vohaning asosiy aholisi XIX asr oxiri-XX asr boshlariga oid manbalarda saqlangan.

Nurota tog' etaklarida XIX-XX asrlarda Nurota turkmanlari, qozoqlar, qisman qirg'izlar va tojik tilida so'zlashuvchi turli etnik guruhlari istiqomat qilib kelishgan[2]. Nurota vohasini V.G. Moshkova 1946-1948 yillarda asosan umumiy tarzda "Nurota turkmanlari" deb nom olgan urug' vakillari istiqomat qilayotgan tog' va tog' oldi etaklarida yashovchi an'anaviy xo'jalik turlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olima bu erda yashovchi qadim turk aholisi avlodlari bo'lgan tojik, o'zbek, qozoq va turkman tillarida so'zlashuvchi mahalliy aholi manzillariga borib bu erdagi gilamdo'zlik tarixi, etnografik yo'nalishlarida ekspedisiya uyushtirib, sayohatlarga bosh-qosh bo'lgan.

V.G. Moshkova o'z etnografik tadqiqotlarida tojiklar Nurota tog' oralig'ining eng qadimiy aholisi ekanligi, Qoratosh atrofida tog' dasarida ham yashab kelayotgani, tojik tilida so'zlashuvchi o'zbeklar esa tuman markazi Nurota qishlog'ida va boshqa dehqonchilik manzillarida yashab kelayotganiga alohida urg'u beradi. Aslini olganda tojiklar Nurota tog' tizmasining tarkibiy qismi sanalgan Oqtog' va Qoratog' oralig'idagi markaz hisoblangan Nurota shahrida hozirgi kungacha boshqa Sintab, O'xum, Mojrum, G'azg'on, Katta Ej, Kichik Ej kabi qishloqlarida kompakt holatda istiqomat qilib kelmoqdalar[3]. Mazkur Nurota vohasi an'anaviy hunarmandchiligida muhim o'rin tutgan gilamdo'zlik va kashtado'zlik maktabi ham respublikamiz hayotida o'ziga xos etnolokal madaniy hayot tarzini ifoda etib kelmoqda.

O'tgan asr o'rtalariga qadar Nurota shahrida nonvoylar Nonvoy mahallasida, qassoblar Qassobo mahallasida, ip yigiruvchilar Dukchihoda, yog'ochsoz va o'ymakorlar Ustahoda, kulollar Ko'zagaron mahallasida, kigiz, gilam, alacha to'quvchilar Namatzano mahallasida yashaganlar[4]. Shaharda turli etnik jamoa vakillari yonma-yon hatto aralash yashasalarda, go'rkovlar, g'assollar mahallasi alohida bo'lgan. Shu narsa xarakterliki, murakkab etnik tarkibga ega shaharda har bir mahalla a'zosi ijtimoiy-iqtisodiy prinsiplar asosida uyushganlar[5]. Shu tariqa vohada kasbning avlodan-avlodga meros qolishi an'ana holda rivojlanib kelgan.

Nurota vohasida XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida gilam to'qish bilan bog'liq tadbirlar qishloq jamoasida xotin-qizlar hasharining bunday turlari keng tarqalgan bo'lib, odatda qishloq ayollari katta hajmdagi yumushlarni o'zaro hamkorlikda, bir-birlariga yordamlashgan holda bajarishgan. Qizlar bunday uyushmalarga 8 yoshdan boshlab kira boshlaganlar. Hasharga oiladagi har bir xotin-qizning qatnashishi shart bo'lgan. Mabodo ayol uzrli sabab bilan hasharga qatnasha olmasa, qizi, singlisi yoki kelini qatnashishi mumkin bo'lgan. Hatto ular o'zi bilan hasharga turli taomlar ham olib kelishgan. Chunki gilam to'qiydigan ayollar ovqat pishirishga vaqtlari bo'lmaganligi uchun yaqin qo'shnilar tomonidan chiqarilgan[6].

Gilam to'qish hasharlari ham navbat bilan tashkil etilib, hasharga kelayotgan ayol o'zi bilan birga zarur anjomlar, mahsulotlar, egulik va idish-tovoqlar bilan birga, gilam to'qish dastgohlarini ham

olib borishgan. Forish tumanining chorvador turkman va tojiklari yashovchi Sintop va O‘xum qishloqlarida qizlarga ko‘proq chorvadorlarga xos hunarlar o‘rgatilgan, ular kattalar qatori kigiz, gilam va gilam mahsulotlari to‘qiganlar. Shuningdek, qo‘y va echki terilari tuz solingan sho‘r suvga solib pishiqlanib po‘stak ham tayyorlaganlar[7].

Bugun kunda xalq amaliy san'atining bir turi bo‘lgan “kashtachilik” maktablari ichida respublikamizda eng yuqori o‘rinda turadi. Chunki, san'at ahli tadqiqotchilari o‘z izlanishlarida Nurota so‘znachiligi va kashtachiligi sohasida ulkan yo‘lni bosib o‘tilgan maktab tashkil etilayotganini bot-bot e‘tirof etib kelmoqdalar. Nurota an’anaviy kashtachiligida boshqa maktablardagi singari shox, barg kabilar qo‘shimcha unsurlar sifatida kiritilsa, asosiy mohiyatini ochib berishda aynan gullardan foydalaniladi. Hudud kashtachiligida gulsafsar, guli havrang, guli lola, guli chindaxayol, zamuchagul, chinnigul, xibcha baxmal kabi gullar ishlatiladi. O‘simlik naqshlari go‘yo ba’zi parrandalar, jonzotlar (baliq, tovus, qushlar) tasviri bilan jonlangandek bo‘ladi. Kashta, asosan, bosma chokida juda nafislik bilan tikilib, gul atrofi yurmada bosiladi.

Jumladan, Nurota kashtalari mayda gul barglari hamda o‘ynoqi naqshlari bilan kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Ushbu hududda alohida kasb etuvchi kashtalarda tasvirlangan anor gullari mehr ramzi hisoblangan bo‘lsa, atrofidagi naqshinkor yo‘l chiziqlari hayot davomiyligini aks ettirgan. Chevarlarning turfa ko‘rinishdagi gullarga mos rang tanlab, uning chetini aylana, uchburchak yoki to‘rtburchak shaklda ingichka chiziqli jilo berib tikkan kashtalari uni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Nurotaliklar milliy kashtachilik va so‘zana san'atida o‘simliksimon va gullar tasviri tushirilgan naqsh kompozitsiyalarini keng qo‘llab keladilar. Ushbu hududda alohida kasb etuvchi kashtalarda tasvirlangan anor gullari mehr ramzi hisoblangan bo‘lsa, atrofidagi naqshinkor yo‘l chiziqlari hayot davomiyligini aks ettirgan. Nurota vohasida “Anor” namoyonda anor butasi gul va mevalari bilan qizil baxmalga tikilgan. Markaziy maydon guli ikki qator hoshiya chizig‘i bilan o‘ralgan. Bundan tashqari “anor” – farzand belgisini anglatsa, “qalampir” – yomon ko‘zlardan asraguvchi tumor sifatida anglashiladi, “bodom” – rizq-ro‘z, “ochilgan gullar” – muhabbat, “shoxchali gullar majmuasi” – farovon hayot, “qushlar” – baxt omadni ifodalaydi. Nurota

vohasida “Anor” namoyonda anor butasi gul va mevalari bilan qizil baxmalga tikilgan va joynomoz, so‘zana, kashta, yostiq jild, dasturxon kabi matolarga tikilgan[8]. Bundan tashqari Nurota kashtachiligida meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda marvarid, turunj, anor, olcha, uzumlarning tasvirini ham ko‘rish mumkin.

Kashtachilikda deyarli barcha naqsh turlari diniy ramzlar sanalgan. Buyrokars, kayma, koshakars, kamalak, bahorgi bulut, ko‘knor nusxa naqshlari yovuzlikdan asrovchi ramz sanalsa, anor guli, lola guli naqshlari mehr – muhabbat ramzi sanalgan. Chiroq naqsh turi nurli kelajak ramzi sifatida, olloh rahmatidan umidvorlik sifatida tasvirlangan. Hilol, qalampirgul, quyosh nusxa naqshlari farzand, ko‘payish ma‘nosini bildirgan. Nurota kashtalari mayda gul barglari hamda o‘ynoqi naqshlari bilan kishi diqqatini o‘ziga tortadi.

Nurota kashtachiligida meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda marvarid, turunj, anor, olcha, uzumlarning tasvirini ham ko‘rish mumkin. Aksariyat, ornamental gul turlari o‘zlarining uzoq davomli rivojlanishlarida shu qadar ko‘p uslublarga va geometrik ko‘rinishlarga ega bo‘lganki, hatto ularning dastlabki islamiy shakllarini ilg‘ab olish mushkul. Zamonaviy ustalar, ularni istagan ko‘rinishda talqin qila boshlaganlar[9]. Kashtachilik san'atiga ayollar ularning kelajagi, farzandlari va o‘z baxt-saodati xaqida orzu-umidlarini, tabiatga bo‘lgan muhabbatlarini va go‘zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning bahri dilini ochadi, insonparvarlik va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek estetik hissiyotni uyg‘otadi. O‘zbek kashtachilarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri kishini o‘ziga jalb etib, o‘zida bir xil elementlarining uchramasligi va mexanik ravishda qaytarilmasligi hamdir[10].

Nurota vohasida kelinlar kuyovning uyiga ipakdan tikilgan kashta bezaklarini sep sifatida olib borishgan[11] va har bir kelinning sarposida albatta, kashta mahsulotlari bo‘lishi shart bo‘lgan. Bu odat hozirgacha barcha qatlamdagi aholi orasida saqlanib qolgan. Bu kelin-kuyovlarning farovon turmushga erishishi, baxtli va totuv yashashlariga ishoradir. Qolaversa, kelin sarpolari orasida kuyov uchun sovg‘a sifatida alohida kashtali do‘ppi va belbog‘ tikib solingan[12]. Bunday odat O‘zbekistonning Navoiy viloyatining tog‘li qishloqlarida hozirgacha davom etmoqda. Kelin-kuyov baxtli yashashlari

uchun ularning boshi uzra soʻzana yopilib, goʻshangaga kuzatiladi. Toshkentda ham kelinni kuyovnikiga olib borishda kelinning boshiga soʻzana yopib olib borilgan. Shuningdek, qadimda qizning uyiga sovchi kelganda ham xonadon egalari roziligi sifatida sovchilar dasturxoniga qiz tikkan kashtalardan namunalar solib qaytarilgan.

**Xulosa.** Nurota vohasi aholisining gilam anʼanalari uzoq vaqt davomida shakllangan etnomadaniyat mahsuli boʻlib, bir vaqtning oʻzida ushbu hududda yashagan aholining ijodiy badiiy faoliyati natijasidir. Shubhasiz, Nurota vohasining gilam toʻqishi urf-odatlarida nafaqat vohaning turkiy xalqlari, balki boshqa xalqlar madaniyati ham oʻz ifodasini topganligini koʻrish mumkin.

Mahalliy aholining gilam sanʼati anʼanalari murakkab va xilma xildir. Shu bois uni yanada takomillashtirish uchun Nurota togʻ tizmasi aholisi anaʼnaviy moddiy madaniyatining yana talay tarmoqlarini gilam toʻqish anʼanalari bilan birgalikda tadqiq etishni taqozo etadi. Bugungi kunda mahalliy sanoatda zamonaviy tipdagi gilamlarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda, ammo qoʻlda toʻqilgan gilam va paloslarga ehtiyoj yoʻqolib bormoqda. Buning uchun qoʻlbola gilam va paloslarning qadimdan saqlanib qolgan usullarini saqlab qolish, rivojlantirish, zarur boʻlsa xalqaro aloqalar koʻlamida brend darajasiga olib chiqish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Преображенский П. Ф. Реализм примитивных религиозных верований. – Этнография. 1930, № 3, с. 12
2. Андреев М. С. Орнамент горных таджиков верховьев Аму-Дарьи и киргизов Памира, Ташкент, 1928; Ўша муаллиф. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 г., ИТОРГО, т. XVII, 1924; Ўша муаллиф: Ткацкое искусство узбекской женщины с. Милябад, «Народное хозяйство Средней Азии», Ташкент, 1927, №1–2.
3. Тоғаев А. Нурота воҳасида этномаданий жараёнлар (XX асрнинг I ярми). Тарих фан.ном. дисс. автореферати, – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2011. – Б.13-18.
4. Dala yozuvlaridan. Orzieva Izzat. 82 yosh. Nurota shahri (2020 yil)
5. Толипов Ф. С. Мозийга бўйлашган маскан //Гараша кишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола “Ниҳол” –Т., 2008.
6. Ҳакимов А. Ўзбекистон бадий хунармандлиги мустақиллик даврида // Moziydan sado. 3(59). 2013. – Б. 9.
7. ЎзДСМИ хабарлари – 2018/2(6) – Б.88
8. “Илғор чорвадор” газетаси 18 февраль 2000 йил сонидан.
9. Атаджанова Д. Бухоро темирчилик хунармандчилиги / Санʼат. 2008. №1. – Б. 19; Dala yozuv daftari. Samarqand viloyati, Ishtixon tumani. 2007 yil.
10. Фахретдинова Д.А. Декоративно – прикладное искусство Узбекистана. Т., 1972. С. 21.

